

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.X.Raxmatova</b>	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari .....	98
<b>X.A.Yulbarsova</b>	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	102
<b>A.B.G'ulomov</b>	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlarini .....	107
<b>B.Raxmanov</b>	
Ibn Sinoning nohiziqi tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar .....	110
<b>N.A.Imomova</b>	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari .....	117
<b>L.R.Usmonova</b>	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida .....	122
<b>B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova</b>	
O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini .....	128
<b>A.Tashanov</b>	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari .....	135
<b>A.A.Qambarov</b>	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	140
<b>D.X.Gafforova, I.I.Rizayev</b>	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari .....	144
<b>J.J.Shodiyev</b>	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni .....	150
<b>D.O.G'afurov</b>	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyofasi .....	155

---

#### SIYOSAT

<b>R.B.Mirzabayev</b>	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari .....	159
<b>R.A.Ikramov</b>	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarining o'rni .....	168
<b>D.Sh.Maxkamov</b>	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati .....	173
<b>M.M.Safarov</b>	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari .....	177

---

#### TARIH

<b>A.Sharafiddinov</b>	
Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) .....	185
<b>M.F.Rasulov</b>	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri) .....	190
<b>M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov</b>	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari .....	196
<b>F.E.Atajanova</b>	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar .....	200
<b>B.T.Mirzaqulov</b>	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi .....	204

## TURKISTON O'LKASIDA TIBBIY MUASSASALAR FAOLIYATI TARIXI

## ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ

## HISTORY OF THE ACTIVITIES OF MEDICAL INSTITUTIONS IN THE TURKESTAN REGION

Xurshid Sirojiddnovich Jumanazarov<sup>1</sup><sup>1</sup>Xurshid Sirojiddnovich Jumanazarov

– Fanlar akademiyasi tarix instituti katta ilmiy xodimi Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalarni tashkil qilish va faoliyat yuritishi bilan bog'liq mustamlaka hukumatning siyosati ochib berilgan. Tibbiy muassasalarning faoliyati va milliy aholini unga bo'lgan munosabati bilan bir qatorda muassasalardagi kadrlar masalasi ham tilga olingan. Shuningdek, shifoxonlarning faoliyat yuritishiga to'siq bo'lgan moliyaviy va markazlashgan boshqaruvning salbiy tomonlari tahlilga tortilgan.*

**Аннотация**

*В этой статье раскрыта организация и колониальная политика связанной с деятельности медицинских учреждений в Туркестанском крае. Помимо деятельности медицинских учреждений и отношения к ней населения страны, был затронут и кадровый вопрос в учреждениях. Также анализируются негативные стороны финансового и централизованного управления, которые затрудняют работу больницы.*

**Abstract**

*This article reveals the organization and colonial policy related to the activities of medical institutions in the Turkestan region. In addition to the activities of medical institutions and the attitude of the country's population towards it, the issue of personnel in institutions was also touched upon. The negative aspects of financial and centralized management, which complicate the work of hospitals, are also analyzed.*

**Kalit so'zlar:** shifoxona, ambulatoriya, shifokor, epidemiya, ko'chma va turg'un kasalxona, Turkiston general gubernatorligi.

**Ключевой слова:** больница, амбулатория, врач, эпидемия, лазарет и госпитал, Туркестанское генерал-губернаторство

**Key words:** hospital, outpatient clinic, doctor, epidemic, infirmary and hospital, Turkestan General Government

**KIRISH**

Jahon miqyosida mustamlaka davlatlarning tibbiy siyosatiga e'tibor qaratilsa barchasida yangi muassasalarni ochishning o'z tartibi bor edi. Janubiy Osiyo va Afrika qit'asidagi qaram hududlarni ko'radigan bo'lsak ma'muriy birliklar aholining etnik tarkibi, infratuzilmasi hamda strategik ahamiyatidan kelib chiqqan holda tabaqalashgan. Mustamlaka hududni yaxlit maydon deb oladigan bo'lsak, yangi tibbiy muassasalar avval yevropaliklar yashaydigan joylarda va sanoat korxonalarini joylashgan hududlarda[2], shuningdek temiryo'l bo'ylab tashkil qilingan. Milliy aholi istiqomat qiladigan hududlarda esa ko'proq cheklangan tuzilmalarga ruxsat berilgan. Bevosita Turkistonda ilk shifoxonalar harbiylar uchun mo'ljallangan ko'chma va turg'un kasalxonalar edi. Shu tipdagi ilk davolash muassasasi 1868-yili ochilgan harbiy ko'chma kasalxona bo'lib, u 1870-yili turg'un kasalxonaga aylantiriladi[6]. Qariyb yigirma yil davomida Turkistonda faqat harbiy tibbiy muassasalar faoliyat yuritgan. Toshkent harbiy hospitali faoliyatining dastlabki o'n yiliga nazar solinsa ko'chib kelgan aholi va turkistonliklardan umumiy 3405 nafar fuqaro kasallik bilan murojaat qilgan. Harbiy-tibbiyot muassasalari yopiq ishlashi sabab, uning faoliyati turkistonliklar uchun notanish edi. Shuning uchun hospitalga turkistonliklar orasida murojat qiluvchilar soni juda kam ekani qayd etilgan[12]. Harbiy kasalxonalarni tashkil qilish va uni faoliyatiga doir jarayonlar bevosita harbiy vazirlik zimmasida bo'lgani sababli ushbu tibbiy muassasalar general-gubernatorlikning shifoxonalar ishini tashkil qilishdagi o'rnini ko'rsatib berolmaydi. Ya'ni bu harbiy kasalxonalar strategik ahamiyatga ega ekanligi va boshdanoq ma'lum toifani qamrab olishga mo'ljallangani uchun milliy aholiga nisbatan mustamlaka davlatning tibbiy siyosatini to'la ochib berish imkonini bermaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mavzuga doir ma'lumotlar o'rganilayotgan davrda yashab faoliyat yuritgan A.Dobrosmslovning asarida keltirilganini aytish joiz. Ushbu manbada Turkiston o'lkasida mavjud tibbiy muassasalarning ixtisoslashuvi hamda soniga aniqlik kiritilgan. Bundan tashqari bugungi kunda yangi arxiv ma'lumotlarini muomalaga kiritgan A.Djunisbayev tadqiqotlarini tibbiy muassasalarning faoliyatiga doir tahlillar amalga oshirilgan. Olima S.Homan esa o'z tadqiqotlarida mustamlaka tizimi tibbiyotni qurol sifatida foydalanganiga doir tahlillar keltirilgan. Ushbu asarlar masalaga turli nuqtalardan kompleks yondashish imkoniyatini beradi.

**TADVIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur maqolani yozishda mavzuga doir tarixiy manbalar tahlili amalga oshirildi hamda tarixiy tizimlilik, xronologik yondashuv hamda analiz va sentez usullaridan foydalanilgan.

**MUHOKAMA**

Turkiston general gubernatorligida XIX asrning 80- yillaridan so'ng kasalxonalarini tashkil qilishning ikkinchi to'liqini yuz berib, endi fuqarolar uchun mo'ljallangan tibbiy muassasalar paydo bo'ldi. Chunonchi 1883-yili Toshkentda birinchi ayollar va bolalar ambulatoriyasi ishga tushirilgan, 1886-yili erkaklar uchun ixtisoslashgan ambulatoriya, 1900-yili Toshkentning Beshyog'och dahasida ayollar dispanseri ochilgan. Yondosh holda o'lkaning boshqa shaharlarida jumladan Samarqand va Xo'jandda 1886-yil, Farg'onada 1887-yili[11] birinchi ambulatoriyalar ochilgan. Turkistonda ilk tashkil qilingan tibbiy muassasalarning aksariyati o'rinlar soni kam, shifokorlarning shtat birligi cheklangan hamda asosan markaziy hududlarinigina qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, 1893-yili Rossiya imperiyasida Ichki ishlar vazirligi tomonidan yotoq joylar sig'imi bo'yicha kasalxonalar nomenklaturasi to'g'risidagi Nizom tuzilgan. Unga ko'ra: 1-toifa – 300 dan ortiq o'rinli shifoxonalar; 2-toifa – 101 dan 299 o'rinlilar; 3-toifa – 61 dan 100 o'rinlilar; 4-toifa – 16-60 gacha bo'lgan muassasalar kirgan.

Umumiy 6-15 o'ringa ega bo'lgan tibbiy muassasalar kasalxona sifatida emas, balki "davolash punktar", 5 ta o'rindan past bo'lganlar esa "qabul xonalari" sifatida ro'yxatga olingan[13]. Ushbu nomenklatura bo'yicha Turkiston o'lkasidagi holat tahlil qilinadigan bo'lsa yaratilgan tibbiy sharoitlar o'rta darajada ham bo'lmagan. Turkistonda XX asrning boshlarida o'rin soniga ko'ra eng yaxshi tibbiy muassasa faqat 4-toifagagina mansub bo'lgan. Bu paytda Turkiston o'lkasida 27 ta tibbiy muassasaning aksariyati bemorlarni "qabul xonalari" (5 o'rinli) shaklida edi. Quyida hududlar miqyosida aholi soniga tibbiy muassasalarning nisbatini ko'rish mumkin.

**1-jadval. Kasalxonadagi o'rinlar sonining aholiga nisbati[1,7, 4,19]**

Yil	Hudud	O'rin	Aholi soni
1870-80 yillar	Turkiston o'lkasi	1 ta	13 000 ta
	Rossiyaning g'arbiy qism		1 100 ta
	Sibir hududi		2 600 ta
	Sirdaryo viloyatida		60 900 ta
1887-97 yil	Farg'ona viloyati	1 ta	6 600
	Atbasar uyezdi		6000
	(Oqmola viloyati)		5 000
1910-13 yil	Toshkent shahri	1 ta	33 149
	Sirdaryo		15 424
		63 ta tibbiy punkt, 76 ta kasalxona, 2 ta tug'ruqxona	26 440
			6 mln. aholiga

Jadval ma'lumotlarini taqqoslash natijasida ma'lum bo'ldiki, Turkiston aholi jon boshiga kasalxona o'rinlari sonining nisbati bo'yicha faqatgina imperiyaning kichik guberniyalari bilan tenglasha olgan. Jumladan, birgina, 1910-yilgi ko'rsatkich asosida Turkiston o'lkasini Rossiyaning Tomsk guberniyasi bilan solishtirish mumkin edi[5]. Turkiston o'lkasi kabi maydoni va aholi salmog'i yirik hududlarda tibbiy muassasalar hamda shifokorlar soni ko'proq edi. Turkistonda tibbiy muassasalarni tashkil qilish va xizmatini yo'lga qo'yish ham odatdagiday vertikal holda edi.

## TARIX

O'lkadagi barcha tibbiy muassasalarni ochish general-gubernatorning tasdig'i asosida yuz bergan va joylarda bu ishlarni tashkil qilish ishlari viloyatning harbiy gubernatorlariga topshirilgan. Yangi tibbiy muassasalarni tashkil qilish va ishga tushirish qiyinchilik bilan amalga oshirilishi natijasida mavjud shifoxonalarga katta og'irlik tushgan. XIX asrning 80-yillariga kelib turg'un kasalxonalarini qurishga ruxsat berilgan, lekin ayrim hollarda turli sabablar tufayli bu ish ham silliq kechmagan. Birgina Toshkentning o'zida kasalxona ochish uchun 1886-yili general-gubernatordan ruxsat so'ralgan bo'lsada, shahar dumasida mablag' yetishmasligi bahonasi bilan masalani orqaga surib kelgan hamda 1891-yilga kelibgina[17] bo'g'mani davolashga ixtisoslashgan kasalxonaga ruxsat beriladi.

O'lkadagi turli epidemiyalar, yuqumli kasalliklarni tarqalishi kabi holatlar tufayli aholini tibbiyot tizimining quyi bo'g'ini bo'lgan ambulator yordamga ham katta ehtiyoj sezishini ko'rsatdi. Hukumat buni yaxshi anglasa ham tibbiy muassasalarni tashkil qilishda avvalo o'z maqsadlari va ehtiyojlari nuqtai-nazardan yondashgan. Hukumat shahardagi milliy aholiga hali to'la tibbiy yordam ko'rsatish imkoni bo'lmay turib, 1896-yilda maxsus ruhiy kasallar uchun shifoxona ochdi. Bu muassasaning ochilish sababi o'lkada faoliyat yuritayotgan rus harbiylarining holati bilan bog'liq edi. Chunki, askarlarning harbiy xizmat qiyinchiliklaridan ham boshqa muammolari ham ko'p bo'lgan. O'z ona yurtidan ajralish, Turkistondagi yuqori lavozimli amaldorlarning qo'pol munosabati ko'pincha ular orasida ruhiy kasalliklarni keltirib chiqargan[8]. Shu sabab tufayli ushbu tibbiy muassasa tashkil qilingan. Aynan 1896-yili Turkiston general gubernatorligida byudjetning qariyb 60% harajati harbiylarga, to'g'rirog'i ularni o'lkada saqlash uchun yo'naltirilgan edi[3]. Asosiy e'tibor harbiy sohaga qaratilgan bir davrda aholining ehtiyojlari uchun zarur shifoxonalar qurish ruhiy kasalxona va boshqa o'zlari uchun zarur inshootlarni barpo etish darajasida ahamiyatga ega bo'lmagani uchun dolzarb masala sifatida kun tartibida ko'rib chiqilmagan. Tibbiyotning ma'muriy boshqaruvga asoslanishi ayrim hollarda unga atalgan mablag' yoki binolardan nooqilona foydalanish holatlarini yuzaga keltirgan. Masalan, Toshkentda zamonaviy kasalxona uchun turkistonlik boy tomonidan yer xayriya qilingan va qurilish uchun o'ttiz sakkiz ming rubl yig'ilgan. Biroq ushbu mablag' shahar boshlig'i va gubernatorning shaxsiy uylari uchun qimmatbaho mebel jihozlari, gilamlar sotib olishga sarflangan, xayriya qilingan yer maydonida esa politsiya mahkamasi qurilgan[9]. Lekin Toshkentning yevropalik aholi istiqomat qiladigan yangi qismida tibbiy muassasalarni qurish uchun mablag' topilgan.

O'zlariga zarur bo'lgan kasalxona uchun yer topish va uni hashar yo'li bilan barpo etish milliy aholining qo'lidan kelgan. Lekin asosiy masala muassasani ichini to'ldirish va faoliyatini yo'lga qo'yish edi. Bu ishlar bevosita genenral gubernatorlikning vakolatidagi masala bo'lib, afsuski bu borada ham ishlar tabaqalashgan holda yo'lga qo'yilgan edi. Jumladan, bir misol 1870-yil To'ytepa hududi aholisidan to'plangan mablag' hisobiga kasalxona qurilib, unga Peterburgdan kerakli jihozlar keltirilgan. Ammo Turkiston general-gubernatori shifokor tayinlamagani sababli ushbu kasalxona qariyb besh yil davomida ishlamagan[14]. Yangi tashkil qilingan muassasadan tashqari amalda faoliyat yuritayotgan shifoxonalarni ham jihozlar bilan ta'minlash, yaroqsizlarini yangilash masalasi og'riqli nuqtaga aylanib bordi. Chunki, buning uchun tibbiy muassasalarga yetarli mablag' ajratilmadi va oqibatda shifoxonani moddiy-texnik quvvati tashkil qilinganda berilgan anjomlarni kuchi bilangina cheklanib qoldi. Manbalar orqali XX asrning boshlarida ham shifoxonalar XIX asrning 80 yillarida berilgan jihozlar va yaratilgan quvvat bilan ishlab kelganini ko'rish mumkin. Masalan, 1913-yilda tibbiy muassasani taftish qilgan shifokor o'zini qariyb yigirma yil oldingi kasalxonaga tushib qolgandek tasavvur qilganini qayd etgan. Taftishchini bunday xulosa qilishiga sabab shifoxonadagi tibbiy jihozlarni yangilanmagani, umumiy holatning o'zgarmagani bilan izohlangan.

Afsuski aksariyat ambulatoriya yoki shifoxonalardagi holat og'ir yoki achinarli holatda bo'lgan. Chunki hukumat tibbiy muassasalarni tashkil qilishda projekt bo'yicha kasalxonalarga mo'ljallangan binolarni barpo etolmasdi. Shu sabab mavjud bo'sh ma'muriy binolar, xonadonlar tibbiy maqsadlarda foydalanildi. Bu binolarning aksariyati yaroqsiz, egasi tomonidan foydalanmay qo'ygan hamda tibbiy muassasa ochish talablarining eng oddiylariga ham javob bermasdi. Lekin boshqa imkon yo'qligidan muassasalar ba'zan omboxona, o'tinxona, istiqomat qilishga yaramaydigan uylarga joylashtirildi. Buning natijasida turkistonlik bemorlar sifatli yordam olish imkoniyatidan mahrum bo'ldi. O'sha davrdagi tibbiy muassasalarning holatini ko'rib chiqadigan

bo'lsak, masalan, Farg'onadagi shifxona joylashgan binoning ichi juda sershovqin, ayniqsa, statsionar bemorlar o'tin saqlanadigan polsiz xonalarda yotib davolangani[15] qayd etiladi. Shuningdek, ushbu shifoxona qorong'i va tor, havosi almashmaydigan, zax, tomi va poli tuproqli binoda joylashgan bo'lsada, shu holatda bir necha o'n yillar davomida aholiga xizmat ko'rsatgani yoki Namangandagi kasalxonalar ham sanitariya-gigiyena talablariga javob bermagan va tibbiy anjomlarning kamligi va qishda xona isitilmasligi kabi kamchiliklar bilan "yashagan"[18] ham muammo chuqur ildiz otganini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlar tahlili asosida aytish joizki, sohadagi turli mayda muammolar umumiy tizimisizlikni keltirib chiqargan. Shifoxonlarda o'rinlar sonining kamligi, bemorlarni turiga qarab alohida taqsimlanmay, balki aralash holda davolanishi kabi holatlar natijasida tibbiy jihatdan favqulodda holat yuz berganda xizmat ko'rsatish izdan chiqish holatiga kelib qoldi. Aslida bemorni sog'ayishi uchun javobgar bo'lgan muassasalardagi tizimsizlik yana bemorlarni sog'lig'i uchun o'zlari kurashishiga sabab bo'ldi.

General gubernatorlik o'zlari tashkil qilgan tibbiy muassasalar aholi ehtiyojini qondirolmashligini hisobga olib ma'lum vaqt o'tgandan so'ng hususiy tibbiy muassasalar faoliyatiga ham ruxsat berdi. O'sha davrda ochilgan hususiy muassasalarning o'rni va xizmat ko'rsatish quvvati ham davlat shifoxonalari imkoniyatidan ortiq emasdi. Xususiy xizmat joriy qilganlarning ko'pchiligi davlat muassasalarida ishlagan yoki ishlayotgan tibbiyot vakillari edi. Umuman olganda XIX asrning 80-yillardan so'ng Turkiston general-gubernatorligining barcha hududlarida birin ketin tibbiy muassasalar ochilib xizmat turlarini yo'lga qo'ya boshlagan.

Shu tipdagi ilk xususiy kasalxona 1908 yili Toshkentda ochildi va u 5 o'ringa mo'ljallangan edi. Xususiy muassasaning faoliyati kengayib borishini 1911-yili statistikada yaqqol namoyon bo'ldi. Shu yili birgina Toshkentda faoliyat yuritadigan 48 ta shifokorning qariyb 30 tasi xususiy tibbiy yordam ko'rsatgan[10]. Lekin xususiy muassasalarning farqli tomoni xizmat ko'rsatish pullik bo'lib, narxi davlat shifoxonalari uchun belgilangan summadan qimmat[6] edi. Bu davrda tibbiy muassasalarni tashkil qilish holati tahlil qilinsa birinchi navbatda shahar unga yaqin ayrim hududlargina qamrab olinganini ko'rish mumkin. Markazdan uzoq hududlar esa tibbiy muassasalarni yo'qligi sabab bu xizmatdan mosuvo bo'ldi.

#### XULOSA

Qisqacha aytganda XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi hududi bo'ylab sohani muammolar girdobida qolishi va chekka hududlarda muassasalarni moddiy-texnik ba'zasining yaxshilanmasligi natijasida tibbiy xizmat ko'rsatish sifati orqaga ketdi. Jumladan 1914-yilning sakkiz oyida Nau (Nov) qishloq kasalxonasiga bor yo'g'i 38 ta bemor statsionar yordam olish uchun murojat qilgani ham vaziyatni yaqqol ko'rsatadi.

Bu kabi holatlar nafaqat general-gubernatorlikka, balki Rossiya imperiyasining chekkada joylashgan hududlariga xos holat edi. Rossiya imperiyasida tibbiy xizmatni joriy qilishning o'ziga xos "tartibi" shundan iborat ediki: o'sha hududda aholining zichligi, hududlarning markaz bilan aloqa qilish imkoniyatlari (markazga yaqin yoki undan uzoqda ekanligi) va hududning iqtisodiy imkoniyatlari muhim rol o'ynagan. Shu sababli tibbiy xizmatdan foydalanish va muassasalarning faoliyati hududlar bo'ylab notekis shakllandi. Tibbiy xizmat bilan qamrab olish, o'lka aholisining undan foydalanish foizi imperiya markazidan uzoq bo'lgan boshqa hududlarda ham achinarli edi. Masalan, XX asr boshida Tobolsk guberniyasining Obdorsu uchastkasida yil davomida atigi 48 kishi shifoxona xizmatlaridan foydalanganligi ko'rsatilgan[16]. Bu shifoxonalar notekis xizmatning oqibati bo'lib, umumiy jihatdan nafaqat hududiy hukumatning tibbiyotga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi, balki imperiyaning o'zida tizimli faoliyat yo'lga qo'yilmaganligini bildiradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hohman S. La médecine moderne au Turkestan russe: un outil au service de la politique coloniale // Cahiers d'Asie centrale. – 2009. – № 17-18. P.324;
2. Michael P. Medical propaganda and cultural revolution in Soviet Kazakhstan // The Russian review. – 2000. – № 59. – P. 162
3. Алимджанов Б. Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве (вторая половина XIX-начало XX вв.): дисс... для к.и.н. – Спб., 2016. – 143 стр.
4. Галиев В. Врачи-революционеры о голоде и холере 1892 г. в Казахстане // Советское здравоохранение. – 1970. – № 8. – С. 77.
5. Джунисбаев А. Из истории становления системы здравоохранения в Советском Туркестане // history.kz/ history-of-kazakhstan/show/9242

## TARIX

6. Добросмыслов А. Ташкент в прошлом и настоящем (исторический очерк). – Ташкент: Электропаровая типо-лит. О.А. Порцева, 1912. – 341-стр.
7. К истории больничного фонда в дореволюционном Узбекистане (1867-1917 гг.) // Медицинский журнал Узбекистана. – 1964. – № 11. – С. 48
8. Кондрашкина Л. И др. Они были первыми: вклад врачей Российской империи в становление системы здравоохранения в Туркестане (1860-1890-е гг.) // [Современная научная мысль](#). – 2022. – № 3. – С. 70.
9. Қодиров А. Ўзбекистон тиббиёти. – Тошкент: ибн Сино, 2004. – 91-бет.
10. МА. И-17-фонд. 1-руйхат. 38010-иш. 30 - 32 варақ.
11. МА. И-19-фонд, 1-руйхат, 36654-йиғмажилд, 19-варақ.
12. Погосянц М. Организация медицинской помощи населению города Ташкента до Великой Октябрьской социалистической революции (1867-1917 годы) // За социалистическое здравоохранение Узб. – 1954. – № 6. – С. 92.
13. Роговой М. Об организации труда медицинского персонала в штатах городской больниц дореволюционной России // СВ. – 1965. – № 1. – С. 67.
14. Рустамова Х. ва бошқ. Тиббиёт тарихи. – Тошкент: O'zkitobsavdo, 2020. – 165-бет.
15. Садои Фарғона, 1914 йил, 35-сон.
16. Темплинг В. Здравоохранение на крайнем севере Тобольской губернии (XIX — начало XX в.) // ВААЭ. – 2015. – № 4. – С. 137
17. Шадманова С. Туркистонда замонавий тиббиётнинг ибтидоси. [www.uzanalytics.com](http://www.uzanalytics.com) /tarix/7171. 27.04.2020.
18. Шарафиддинов А. Фарғона водийсида замонавий тиббиёт муассасаларининг вужудга келиши ва уларнинг аҳволи (XIX аср охири–XX аср бошлари // ЎзР ФА Қорақалпоғистон бўлимнинг Ахборотномаси. – 2022. – 4. – Б. 78-79.
19. Ямзин И. Врачебное дело в Азиатской части России // Азиатская Россия. Т. 1. – СПб., 1914. – С. 271.